



Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar oyi uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026- yilning 1 fevral holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 803 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 862 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,8 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 307 tasi (11,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 245 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 237 tasi (8,5 %) kiyim ishlab chiqarishga va 194 tasi (6,9 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 fevral holatiga ko'ra



II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2026- yilning yanvar oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 2 111,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 111,7	106,0
Nukus sh.	647,7	105,1
Amudaryo tumani	116,5	108,9
Beruniy tumani	26,5	81,7
Bo‘zatov tumani	5,4	105,7
Qorao‘zak tumani	27,6	58,3
Kegeyli tumani	46,0	98,2
Qo‘ng‘irot tumani	123,7	97,4
Qanliko‘l tumani	24,6	88,1
Mo‘ynoq tumani	33,6	82,6
Nukus tumani	60,9	143,6
Taxiatosh tumani	426,8	111,7
Taxtakopir tumani	31,2	114,9
To‘rtko‘l tumani	40,4	82,1
Xo‘jayli tumani	70,1	113,2
Chimboy tumani	36,0	135,7
Shumanay tumani	21,5	125,3
Ellikqal’a tumani	72,8	112,2

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (1 866,4 ming so‘m), Taxiatosh tumanida (5 502,0 ming so‘m), Nukus tumanida (1 098,8 ming so‘m), o‘rtacha respublika darajasi ko‘rsatkichidan (1034,4 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida (140,9 %), Chimboy tumanida (134,9 %), Shumanay tumanida (124,5 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar oyida*



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1 620,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (76,8 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 10,7 mlrd so'm (0,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 460,0 mlrd so'm (21,8 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 20,1 mlrd so'm (0,9 %) ni tashkil etdi.

*Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar oyida*



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



2026- yilning yanvar oyida respublikada 572 tonna o'simlik yog'i (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 153,1 % ga ko'paygan), 490,5 ming dona mebel (34,3 % ga ko'paygan), 92,5 mln kub metr tabiiy gaz (28,9 % ga ko'paygan), 1,9 ming tonna ip kalava (11,2 % ga ko'paygan), 359,3 ming litr aroq (1,4 % ga kamaygan), 7,0 ming tonna bug'doy uni (3,3 % ga kamaygan), 2,0 ming tonna paxta tolasi (7,6 % ga kamaygan), 19,8 ming tonna dinatriy karbonati (9,4 % ga kamaygan), 150 tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (34,2 % ga kamaygan), 30,8 ming tonna portlandsement (48,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar *	2025 yil yanvar *	2026 yil yanvar
Portlandsement, tonna	57600	60328,1	30813,0
Paxta tolasi, tonna	3178,0	2184,0	2017,0
Tozalangan o'simlik yog'i, tonna	446,9	226,0	572,0
Bug'doy uni, tonna	6624,2	7220,0	6979,0
O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	520,0	228,0	150,0
Aroq, ming l 100% li spirt	389,8	364,3	359,3
Ip kalava, tonna	678,0	1697,0	1886,3
Tabiiy gaz, mln kub m	5,0	71,8	92,5
Dinatriy karbonati, ming t	19,5	21,9	19,8
Mebel, dona	-	365200	490497

**2024-2025 yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,0 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,9 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,01 % ni (2025- yilning yanvar oyida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 42,6 % ni (41,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 5,6 % ni (8,6 %), quyi texnologiyali 51,8 % (49,4 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 10,4 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 97,6 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar *	2025 yil yanvar *	2026 yil yanvar
Elektrenergiya, mln.kvt.s	543,5	438,5	484,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8,9	7,0	6,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	23014,3	23150,9	24501,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 129,0 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 158,2 % ga ko'payish kuzatildi, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 22,4 % ga, kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar *	2025 yil yanvar *	2026 yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	786,4	795,8	1822,5
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	997,2	1470,3	1140,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	5927,1	6331,3	16344,8

**2024-2025 yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 693,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 32,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
